



# **“BUXORO ADABIY MUHITI: KECHA VA BUGUN”**

mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy  
**ANJUMAN**  
**MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO  
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV  
NOMIDAGI  
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI**

**“BUXORO ADABIY MUHITI:  
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

**MATERIALLARI**

**Buxoro  
“Ilm ziyosi”  
2024**

## **“ZARBULMASAL” ASARI NASHRLARIDAGI FARQLI O’RINLAR (2016-2019-yillardagi nashrlar xususida)**

**Safarova Hilola Oxunjonovna,**

BuxDU, f.f.n. dotsent

**Muzaffarova Surayyo Furqat qizi,**

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari va uning 2016-yildagi H.Yoqubov va 2019- yildagi S.Dolimovlar tomonidan tayyorlangan nashrlari o’zaro qiyoslanib, ulardagi ayrim farqlar haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Boyo’g’li, Yapaloqqush, Ko’rqush, masal, arabiy jumla, forcha bayt, H.Yoqubov nashri, S.Dolimov nashri

**Аннотация:** В данной статье сравнивается произведение Гульхани «Зарбулмасал» и его издания, подготовленные Х.Ягубовым в 2016 году и С.Долимовым в 2019 году, и говорится о некоторых их различиях.

**Ключевые слова:** Бойоглы, Япалоккуш, Коркуш, басня, арабское предложение, редакция Х. Ягубова, редакция С. Долимова.

**Abstract:** This article compares “Zarbulmasal” of Gulkani’s work and its editions prepared by H.Yaqubov in 2016 and S.Dolimov in 2019, and talks about some of their differences.

**Key words:** Arabic sentence, Persian couplet, Owl, Yapaloqqush, Kurqush, H.Yakubov’s edition, S.Dolimov’s edition

Ma’lumki, masal uzoq tarixga ega bo’lgan janrlardan sanaladi. Jahon adabiyotida masal janrida ijod etgan masalnavislar haqida ham anchagina ma’lumotga egamiz. Masalan, Ezop. U – miloddan avvalgi VII-VI asrlarlarda Yunonistonda yashab ijod etgan va yarimafsonaviy masalnavis sifatida mashhur bo’lgan. Fransuz adabiyotida Jan de Lafonten, Antuan Fyuret’yer va rus adabiyotida I.A.Krilov ham buyuk masalnavis sifatida tilga olinadilar.

Masal janri namunalari "Kalila va Dimna", Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Rabg’uziy, Alisher Navoiy asarlarida uchraydi. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida masaldan mohirlik bilan foydalangan.

Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarining o’zidan oldin yaratilgan hikoya va qissalardan farqi shundaki, bu asarda Gulxaniy hikoyat, masal qahramonlariga jonli va hayotiy tus bera olgan. Asardagi qushlar obrazi orqali esa Gulxaniy o’z zamonasidagi ayrim ijtimoiy tabaqa vakillarining tasvirlab bergan. Asardagi qahramonlar nutqida so’zlangan maqol va matallardan, xalqimizning qadimdan qanchalik donishmand va ilimli bo’lganligini hamda xalqimiz urf-odatlarining o’ziga xosligini anglashimiz mumkin. Shuningdek, asar voqealari va asarda qahramonlar nutqida keltirilgan hikoyatlardan o’sha davr ijtimoiy-siyosiy ahvolini ham anglab olish hech gap emas. “Zarbulmasal” so’z san’atining ajoyib durdonasi hisoblanadi.

“Zarbulmasal” asarining ko’plab toshbosma va qo’lyozma nusxalari mavjud. Matnshunos olimlar tomonidan ular topilib o’rganilgan, tabdil qilingan va nashrga

tayyorlangan hamda ommaga taqdim qilingan. Bu asar mustaqillik davrigacha ikki-uch marotaba nashr qilingan. Mustaqillik davriga kelib yana asarning ikki marotaba nashri amalga oshirilgan. Bular quyidagilar:

1. H. Yoqubov tomonidan 2016-yil Toshkentda “Ma’naviyat” nashriyotida chop etilgan.

2. S.Dolimov tomonidan ikkinchi marta<sup>1</sup> 2019- yil Toshkent “Yangi nashr” nashriyotida nashr qilingan.

Ushbu ikkala nashrni o’zaro qiyoslash jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki, nashrlarda farqli o’rinlar juda ko’p uchraydi. Bunday farqlar, so’zlarning yozilishi, jumlar va maqollarda ham uchraydi. Farqlarning mavjudligiga sabab deb, ikkala nashrni ikki matnshunos olim tadqiq qilib nashrga tayyorlagani bois deya ayta olamiz. Chunki olimlar foydalangan manbalar ham turlicha bo’lgan bo’lishi ehtimoldan yiroqi emas. Maqolamizda shunday farqli o’rinlarni o’rganib, tahlil qildik. Shuningdek bir jumlaning qayta takrorlamaslik yuzasidan kitoblarni nashrga tayyorlagan tadqiqotchi olimlarning nomlari bilan berdik:

- 2016- yilgi Homil Yoqubov nashri krill alifbosida, 2019- yilgi Subutiy Dolimov nashri lotin yozuvida nashr qilingan.

- H.Yoqubov nashrida asar boshlanishidan oldin muqovaning ichki qismida annotatsiya berilgan. Hamda asarning boshlanishida, asar sarlavhasining ostiga qavsning ichida (yapaloqqush hikoyasi) deb yozib qo’yilgan. Ushbu holatlar S.Dolimov nashrida ko’zga tashlanmaydi.

- 2016-yilgi nashr “*Avval roviylar andog’ rivoyat qilurlarkim, ...*” [5.3]deb boshlangan. Ammo bundan farqli 2019-yilgi nashr “*Roviylar andog’ rivoyat qilurkim, ...*” [1.3]deb boshlangan. Ko’rinib turibdiki, 2016-yil nashridagi “*Avval*” so’zi 2019-yilgi nashrda mavjud emas.

- Shuningdek, H.Yoqubov nashrlarida “*...qilurlarkim*” so’zidagi ko’plik qo’shimchasi “*-lar*” S.Dolimov nashrlarida qo’shilmagan. Agarda ma’no jihatidan e’tibor qilsak, “*qilurlarkim*” iborasi matnga mos keladi. Chunki, “*roviylar*” ko’plikda bo’lgan bir paytda, gapning kesimini “*qilurkim*” emas “*qilurlarkim*” deyishlik o’rinlidir.

- S. Dolimov nashrlarida “*podshodin*” so’zi, H. Yoqubov nashrlarida “*podshohligdin*” ko’rinishida kelgan. “*...Farg’ona iqlimida Kayqubod otlig’ podshodin qolgan bir eski shahriston bor erdi*” (2019-yil). “*...Farg’ona iqlimida Kayqubod otlig’ podshohligdin qolgan bir eski shahriston bor erdi*” (2016-yil). Fikrimizcha, S. Dolimov nashrlaridagi “*podshodin*” so’zi qo’llanilishi afzalroq. Chunki, “*podshohligdin*” so’zi tarkibidagi *-lig(lik)* qo’shimchasi qarashlilik ma’nosini bildiradi ya’ni qaysidir shohlikka tegishlilikni bildiradi. Bunga zid holda bu jumlada *Kayqubod otlig’* deyilgan ya’ni *Kayqubod* shohning nomi. Shu boisdan “*podshohligdin*” emas “*podshodin*” tarzida kelgani to’g’riroq. Hattoki, qo’limizda mavjud bo’lgan, Buxoro san’at muzeyida saqlanayotgan asarning 12443/11 inventar

---

<sup>1</sup> S.Dolimov tomonidan “Zarbulmasal” asari 1972- yilda birinchi marotaba nashrga tayyorlangan. Bu nashrning 2019-yilgi nashrdan farqi shundaki, bu nashrda Gulxaniy va “Zarbulmasal” asari haqida ma’lumotlarni o’z ichiga olgan muqaddima qismi mavjud. Shuningdek ushbu nashr krill alifbosida nashr qilingan. “Maktab kutubxonasi uchun” deb muqovaga yozib qo’yilgan.

raqamli toshbosma nusxasida ham “*podshodin*” tarzida kelgan. Shu sababdan ham yuqoridagi to’xtamga kelidik.

- Asarda Boyo’g’lining oshyoni “...*xush va bodi dilkash*” (S.Dolimov nashri) deya ta’rif keltirilgan. Biroq 2016-yilgi nashrda “*bodi*” so’zi tushib qolgan. Bu holatni aniqlash yuzasidan qo’limizdagi toshbosma nusxaga nazar salsak, toshbosma nusxada ham “*bodi*” so’zi mavjud.

- Asarning 2016-yilgi nashrida Boyo’g’li qizining ismi “*Gunashbonu*” deb keltirilgan. S.Dolimov nashrlarida esa bu ism “*Gunash bonu*” shaklida alohida ajratib yozilgan. Toshbosma nusxaga nazar salsak, bunda “*Kunush bonu*” deb yozilgan. Aslini olganda bu ism qanday yozilishi va “*Gunash*” yoki “*Kunush*” deyilishligi ma’no farq qilmaydi. Har ikkala holatda ham ma’no bir xilligi saqlanib turadi.

- “Zarbulmasal” asarining H.Yoqubov nashrlarida Yapaloqqush va Ko’rqushning sovcilikka borish mavzusidagi suhbatlari jarayonida, Ko’rqushning nutqidan so’zlangan ushbu jumla “*Ey besabr, bu hadis ma’nisidin bexabarmusanki, “Taanniy rahmondin va ta’jil shaytondin”*”[5.7] keltirilgan. Bu jumlada, biror narsaga erishishda qiyinchiliklar bo’lishligi va bunda sabrli bo’lishni rahmonga xos, hamda shoshqaloqlik qilish esa shaytonga xos xislat deya ta’rif keltirilgan. Biroq, 2019-yilgi S.Dolimov nashrlarida keltirilmagan va uch nuqta qo’yib, davomidagi voqeotlar berilgan. Ushbu holat davr yoki ijtimoiy-siyosiy holatga bog’liq bo’lib, jumla arabcha diniy saboqqa oidroq bo’lganligi bois matnshunos ushbu jumlaning asarda tushirib qoldirgan degan xulosaga keldik.

- 2019-yilgi nashrda biz Umarxon nomini ko’rishimiz mumkin. Ammo 2016-yilgi H.Yoqubov nashrlarida Umarxon nomi keltirilmasdan tashlab ketilgan. Ko’rqush: “...Holo...podshohimiz...Umarxon...zamonlarida...bir bo’sh chordevor topilmas, uyalurmiz” [1,5]

- Asarning boshida Gunashbonuning ta’rifi keltirilgan qismning davomida Gunashbonu va onasining, qiz bolaning turmushga chiqishi va oila masalasida olib borgan bahs - munozara jarayoni: “*Onasi qabzlanib aydiki; - Ey bolam, ko’nglungiz ertilar o’xshar, oshuqmang. “Oshuqq’on qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas”, - der erdi. Onda qiz itob og’oz qilib aydiki: “Ey ona, siz bizga sabr va tahammul sari yo’l ko’rsatursiz, meni olur yigitning ham otasi ayturki: “Po’lat pichoq qinsiz qolmas”, “Bosh eson bo’lsa, do’ppi topilur”, bular so’z ustida erdilarkim...”*” [5.4] S.Dolimov nashrlarida keltirilmagan. Ya’ni nashrdan tushirib qoldirilgan va o’sha voqea o’rniga uch nuqta qo’yilgan. Ehtimol bu yerda olim maktab yoshidagi qizlarga bu holatni bayon qilishni ma’qul ko’rmagan bo’lishlari mumkin. Chunki, farzandning ota-ona so’ziga teskari so’zlashi, yuziga tik qarashi bizning o’zbek xalqimiz urf-odatiga va odobiga mos kelmaydi. Shu boisdan ham ushbu o’rin nashrdan tushirib qoldirilgan bo’lsa ajab emas.

- Hattoki ayrim forscha baytlarda bir so’z 2 xil shaklda yozilgan. Uning qay biri matnga muvofiq ekanligini aniqlash uchun baytning ma’nosini anglab, lug’at yordamida so’zning asl ma’nolarini aniqlash lozim. Bunday holatga misol qilib, S.Dolimov nashridagi: *Ko’rqush aydi...*

*“Takya bar joyi buzurgon notavon zad **bagazzob**,  
Magar asbobi buzurgi hama omada kuni”* [1.7]

Bu baytdagi “*bagazzob*” so’zi H.Yoqubov nashrlarida “bagazof” ko’rinishida kelgan. Bu holatni lug’at yordamida aniqlashga harakat qilganda shu ma’lum bo’ldiki, “*ba g’azab*” so’zi mavjud ekan, jumlaning ma’nosiga mosligi jihatidan 2019-yilgi nashrni to’g’riroq deb bildik.

Xulosa qilib ayta olamizki, yuqorida keltirilgan misollarga o’xshagan ko’plab farqlar asarning nashrlari orasida ko’zga tashlanadi. Bu farqlarning ayrimlari asar ma’nosiga ta’sir qilmaydi. Aksincha ba’zilar ham ma’no ham grammatik jihatidan mos kelmaydi. Bunday hollarda, yosh matnshunos tadqiqotchilarning oldiga katta vazifalar qo’yiladi. Kelajak avlod nashrlarni o’zaro taqqoslab ulardagi farqli o’rinlarni aniqlashi lozim. Shuningdek, qo’lyozma va toshbosma nusxalarni qayta, chuqurroq va sinchkovlik bilan o’rganib, yuqorida aytib o’tilgan kamchiliklarni tuzatgan holda, bir mukammal nashr tayyorlanishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Dolimov S. Zarbulmasal – Toshkent: Yangi nashr. 2019.
2. Is’hoqov F. Zarbulmasal. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – T., 1974.
3. Nusratulla Jumaxo’ja, Iqboloy Adizova. O’zbek adabiyoti tarixi. (XV-XIX asr I yarmi). Toshkent. “Innovatsiya - Ziyo”. 2020.
4. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O’zbek matnshunosligi qirralari – Toshkent: “Akadem nashr”. 2015.
5. Yoqubov H. Zarbulmasal – Toshkent: “Ma’naviyat”. 2016.
- 6.H. Safarova, A crow, an owl, a sheep, a bird turned your flowers...:(On the example of the work of the poet Samandar Vahidov)Center for Scientific Publications (bukhdu. en).
7. (2021) 5. H. Safarova, Theformation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov) Center for Scientific Publications (bukhdu. en).8 (2021)
8. H. Safarova, Navoi does not need a soul, but. Center for Scientific Publications (bukhdu. en).3 (2021) 7. A. Hamroyev, H. Jumayeva, E3S Web of Conferences 420. 10007 (2023)

### **XORAZM ADABIY MUHITIDA TAZKIRANAVISLIKDA ALISHER NAVOIY TA’SIRI**

*Matkarimova Salomat Ko’ziyevna,*

Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Maqolada XIX asr Xorazm adaby muhitida tazkiralarning yaratilishida Alisher Navoiy ta’siri masalasi tahlilga tortilgan. Ahmadjon Tabibiyning «Majmuayi si shuaro payravi Feruzshohiy», “Muxammasoti majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy”, Laffasiyning «Tazkirayi shuaro», «Xiva adabiyotchilarining tarjimayi hollari», Bobojon Tarroh Azizovning “Xorazm navozandalari” asarlari misolida Xorazmda tazkiranavislikda Navoiy an’analarining davom ettirilishi, an’ana bag’ridagi yangilik va tazkiranavislar mahorati ochib berilgan va asoslangan xulosalarga kelingan.

---

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                         |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <i>Obidjon Xamidov</i> BUXORO – JAHON TAMADDUNING BESHIGI .....                                                                                                         | 3  |
| 1-SHO‘BA. ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA<br>MANBASHUNOSLIK MASALALARI                                                                                                   |    |
| <i>Shavkat Hayitov, Kamola Qudratova</i> NAVOIY PANDNOMASINING<br>BUXORODAGI QO‘LYOZMA NUSXASI HAQIDA.....                                                              | 5  |
| <i>Dilrabo Quvvatova, Sevinchbonu Baxtiyorova</i> ABU MANSUR<br>AL-MOTURUDIYNING “KITOB AT-TAVHID” ASARINING MUMTOZ<br>SHARQ ADABIY MANBASHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI..... | 9  |
| <i>Nazora Bekova, Xumora Ikromova</i> DEVONI SAYQALIYNING<br>ILOHIYOTGA DOIR QISMLARINING QIYOSIY TAHLIL.....                                                           | 12 |
| <i>Safarova Hilola, Muzaffarova Surayyo</i> “ZARBULMASAL”<br>ASARI NASHRLARIDAGI FARQLI O‘RINLAR .....                                                                  | 16 |
| <i>Matkarimova Salomat</i> XORAZM ADABIY MUHITIDA<br>TAZKIRANAVISLIKDA ALISHER NAVOIY TA‘SIRI.....                                                                      | 19 |
| <i>Kenjayev To‘lqin</i> FITRAT ASARLARINING NASHRI BILAN<br>BOG‘LIQ AYRIM QAYDLAR XUSUSIDA.....                                                                         | 26 |
| <i>Hulkar Turdiyeva</i> SHERALI TURDIYEV TADQIQOTLARIDA<br>FITRATSHUNOSLIK.....                                                                                         | 31 |
| <i>Azimjon Hamidov</i> SO‘ZDAGI HARF, TOVUSH BILAN BOG‘LIQ MATNIY<br>FARQLAR, ULARNING MA‘NO VA BADIYYATGA TA‘SIRI.....                                                 | 34 |
| <i>III. Норқўчқоров</i> ТАҚТЕИ ҲУДУДИ ҲАРФҲОИ ҚОҒИЯ ДАР “ШАҶРАТ-<br>УЛ-АРЎЗ”-И САИД МУЗАФФАЛӢ.....                                                                      | 39 |
| <i>Xudoyorova Nigora</i> ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA<br>MANBASHUNOSLIK MASALALARI.....                                                                               | 43 |
| <i>Oripov Jahongir</i> BUXORO QO‘LYOZMALAR MUZEY-QO‘RIQXONASIDA<br>SAQLANAYOTGAN DURBEKNING “YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONI<br>HAZORA NUSXASI XUSUSIDA.....                  | 46 |
| <i>Eshonqulova G.T</i> BADIY TARJIMA VA UNING XUSUSIYATLARI.....                                                                                                        | 53 |
| <i>Hamroyeva Sharifa</i> ASLIYATDA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR VA<br>UNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI.....                                                                  | 58 |
| <i>Eshonqulova Feruza</i> HAYDAR XORAZIYNING “MAXZAN UL-ASROR”<br>DOSTONI, UNING NUSXALARI VA NASHRLARI XUSUSIDA.....                                                   | 62 |
| <i>Davronova Mexrangiz</i> ARBA‘IN TOSHBOSMASINING ILMIY TAVSIFI<br>TARKIBI VA TUZILISHI.....                                                                           | 65 |
| <i>Муртазин Эмиль, Петров Рустем</i> ТРАДИЦИИ УСТНОГО НАРОДНОГО<br>ТВОРЧЕСТВА В ЛИТЕРАТУРЕ БУХАРЫ.....                                                                  | 70 |
| <i>Shohsanam Suyunova</i> MANBALARDA SAYFIY BUXORIYNING “MUAMMO”<br>RISOLASI VA NAVOIYNING MUAMMO YECHISH<br>MAJLISLARINING YORITILISHI.....                            | 73 |
| <i>Olimova Munavvar</i> “HUVAYDOYI CHIMYONIY” TOSHBOSMASINING<br>BOSMA NASHRLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI.....                                                              | 77 |